



TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISH TIZIMI VA SAMARADORLIK

To'xtayev Zayniddin Egamnazar o'g'li

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

2-bosqich tayanch doktoranti

https://doi.org/10.55439/ECED/vol25_iss2/a15

Annotatsiya. Ushbu maqolada to'qimachilik korxonalariga sifat menejmenti tizimini joriy etish va samaradorligi, shuningdek, sifat menejmenti tizimlari va ISO 9000 seriya standartlari, rejalashtirish va boshqarish jarayonining kirish parametrlari, to'qimachilik korxonalarini ishlab chiqarish quvvatlaridan 2020-2024-yillarda foydalanishning prognoz ko'rsatkichlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: sifat menejmenti, samaradorlik, ISO 9000 seriyali standartlar, statistik tahlil, sifatni nazorat qilishning yetti instrumenti, inersion ssenariy, innovatsion ssenariy.

СИСТЕМА УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ ПРОДУКЦИИ И ЭФФЕКТИВНОСТЬЮ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Тухтаев Зайниддин Эгамназар угли

Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

2 курс базовой докторантуры

Аннотация. В данной статье рассмотрены внедрение и эффективность системы менеджмента качества на текстильных предприятиях, а также системы менеджмента качества и стандарты серии ISO 9000, входные параметры процесса планирования и управления, прогнозные показатели использования производственных мощностей текстильного производства предприятий в 2020-2024 гг. освещено.

Ключевые слова: качества менеджмента, эффективность, стандарты серии ISO 9000. Статистический анализ, семь инструментов контроля качества, сценарий «Инерция», сценарий «Инновация».

PRODUCT QUALITY MANAGEMENT SYSTEM AND EFFICIENCY IN TEXTILE ENTERPRISES

Tukhtaev Zayniddin Egamnazar ugli

Tashkent Institute of Textile and Light Industry

Doctoral student of the 2nd course of basic doctoral studies

Abstract. In this article, the implementation and effectiveness of the quality management system in textile enterprises, as well as quality management systems and ISO 9000 series standards, input parameters of the planning and management process, forecast indicators of the use of production capacities of textile enterprises in 2020-2024 illuminated.

Key words: Quality management. Efficiency, ISO 9000 series standards, Statistical analysis, seven instruments of quality control, Inertia scenario, Innovation scenario.

Kirish. Bugungi kunda butun dunyoda mahsulot sifatiga katta ahamiyat berilmoqda. Yuqori sifatli mahsulotlar bozordagi raqobatda korxonalar va tashkilotlar muvaffaqiyatining asosiy shartiga aylandi. Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar va tashkilotlarning muvaffaqiyati mijozlar talablarini qondirish darajasiga bog'liq. Iste'molchilarning tegishli mahsulotlarga bo'lgan talablarini qondirish darajasi esa uning sifati bilan belgilanadi. Mahsulot sifati raqobatbardoshligining asosiy omili hisoblanadi. Garchi, sifatdan tashqari raqobatbardoshlik narx, yetkazib berish muddati, texnik mukammallik, kafolatlar, xizmat ko'rsatish va boshqa bir qator tarkibiy qismlarni o'z ichiga olsa ham, sifat barcha raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari og'irligining 70 %ni tashkil qiladi.

Oxir-oqibat, shu xaridorlar mahsulot tanlashda sifatga ustunlik beradi. "Mahsulot sifati" tushunchasining murakkab, ko'p o'lchovli xususiyatini hisobga olgan holda va doimiy ravishda iste'molchilarning unga bo'lgan talablari o'zgarib turadi. Ishlab chiqaruvchilar oldida talab qilinadigan sifatni ta'minlash va uni boshqarish vazifasi turibdi. Mijozlar talablarini qondirish darajasiga qarab korxonalar va tashkilotlar o'z mahsulotlariga nisbatan barqaror talabga ega bo'ladi va bozor munosabatlari sharoitida korxonalar va tashkilotlarning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Mahsulotning butun hayoti davomida, sifat menejmenti sohasida tegishli bilimlarni o'qitishni talab qiladi. Sifat menejmentining zamonaviy nazariyasi va amaliyoti shundan kelib chiqadiki, bu faoliyat mahsulot

yaratishning barcha bosqichlarida – marketing tadqiqotlari, ishlab chiqarishga tayyorlash, uni yaratish, ishlatish (iste'mol qilish) va yo'q qilish-gacha, ya'ni rejalashtirilgan mahsulotni shakllantirish va amalga oshirish bosqichlarida amalga oshiriladi. Rivojlanishning hozirgi bosqichida sifat menejmenti – katta ahamiyatga ega ko'pgina fanlarning elementlarini o'zida mujassam etgan nazariy asos. Biroq sifat menejmenti paydo bo'lgan paytdan boshlab va hozirgi kungacha sifat menejmenti amaliy fan bo'lib qolmoqda. Uning asosiy vazifasi yuqori sifatli natija ega mahsulotlar, boshqaruv tizimlari, jarayonlar, infratuzilma, yashash muhiti va boshqa elementlarni rejalashtirish, yaratish va ta'minlashdan iborat. Ushbu muammoning yechimi sifat menejmenti tizimlarini yaratish orqali erishiladi. Umumiy sifat menejmenti turli nazariyani o'z ichiga oladi. Sifatga barcha xodimlarni mahsulot ishlab chiqarishni yaxshilash bo'yicha tadbirlarga jalb qilish orqali erishiladi. Sifatni yaxshilashdan maqsad iste'molchilarning talablarini qondira olishdir. Sifat menejmenti tamoyillari va amaliy usullari, miqdoriy va sifatli ma'lumotlarni tahlil qilish vositalari, iqtisodiy nazariya va jarayonlarni tahlil qilish elementlari – ular bitta maqsadga sifatni doimiy ravishda oshirishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sifat menejmenti tizimlari va ISO 9000 seriya standartlari rivojlanishiga katta hissa qo'shgan G'arb maktabining vakili, amerikalik yetuk mutaxassis Filip B.Krosbi o'zidan oldingi zamondosh hamkasblaridan farqli ravishda mahsulot sifatini kompleks usulda yaxshilash muammosini hal etish taklifini ilgari surdi. U sifat tizimini joriy etishning 14 ta qoidasini kashf etgan. Xalqaro ISO 9000 standartlarida bunday yondashuv (unifikatsiyalash va standartlashtirish) 8 yil o'tgandan so'ng 1987-yilda qo'llanilgan [1].

Shunday qilib, bu davrda korxonalarda sifatni yaxshilash va ishlab chiqarish unumdorligining o'sishi o'rtasidagi avvalgi ziddiyatlar hal etildi. Chunki boshqaruvning yangicha g'oyalari qo'llanishi bir vaqtning o'zida sifatni oshirish va korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish uchun imkon berdi.

Sifat menejmenti tizimlarining shakllanishi va rivojlanishi XX asrda sifatni boshqarish bilan bog'liq g'oyalar rivojlanishining eng muhim nuqtasiga aylandi.

E.Demingning ta'kidlashicha, korxonalar boshqaruvining amaliy tajribasini nazariya yordamida o'rganib chiqmagunga qadar, ularni tushunmasdan takrorlash, befoyda bo'ladi va bu muvaffaqiyatga olib kelmaydi [2]. ISO seriyasi standartlarining 1994-yilgi tahririda sifat menejment tizimi

deb, “sifatni yalpi boshqarish uchun zarur bo'lgan tashkiliy tuzilma, usul, jarayon va resurslar yig'indisi” tushunilgan.

Yangi ISO 9000:2000 standartida keltirilgan ba'zi atamalarni tahrir qilganimizda, quyidagicha fikr vujudga keladi: sifat menejmenti tizimi, sifatga oid siyosat va maqsadlarni ishlab chiqish uchun mo'ljallangan o'zaro harakatchan elementlarning yig'indisi bo'lib, sifatni boshqarish yo'nalishini tanlash uchun birlashgan faoliyat yordamida qo'yilgan maqsadlarga erishishdir [3].

A.V.Glichevning fikriga ko'ra, mahsulot sifatini boshqarish tizimi “kuch va mablag'larni minimal darajada sarflash orqali iste'molchining ma'lum ehtiyoj va talablari qondirilishini ta'minlovchi xususiyatlarni mahsulotga tatbiq etish maqsadida mahsulotni ishlab chiqarish, sotish, undan foydalanish va servis xizmatini ko'rsatishda ishtirok etgan boshqaruv va ijro bo'limlari hamda ayrim shaxslarning o'zaro samarali faoliyatini tashkillashtirish usulidir” [4].

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, iqtisodiyotga oid adabiyotlarda samaradorlik deganda, amalga oshirilgan sarflar va olingan natijalarni taqqoslash tushuniladi. Bunday nuqtayi nazarni bu sohada ko'plab tadqiqotlar ko'zda tutib, biroq ularning ishlarida “natija” va “sarflar” tushunchasiga nimalarni kiritish to'g'risida bir qator farqlar mavjud [5].

Rossiyalik taniqli olim A.V.Pikulkin fikricha, iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy dastur va tadbirlarning samaradorligi olingan iqtisodiy samaraning bu samarani olishga sabab bo'lgan omillar, resurslarga nisbati bilan tavsiflaydi [6].

Y.N.Kornaya esa iqtisodiy samaradorlik xo'jalik faoliyati natijalari va mehnat xarajatlari o'rtasidagi nisbatni belgilaydi, deb hisoblaydi [7].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda, avvalo, to'qimachilik korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish tizimi va samaradorlikni oshirishning asosiy bosqichlari tadqiq etildi. Shuningdek, mahsulot sifatini boshqarish va tahlil qilishning statistik usullari, inspeksion nazorat, ishlab chiqarish va texnologiya, jarayonni tahlil qilish, sifatni nazorat qilishning yetti instrumenti keng yoritildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. To'qimachilik korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish mahsulot sifati darajasini joriy qilish, ta'minlash va zaruriy darajada ushlab turish maqsadida loyihalash, tayyorlash va foydalanish vaqtida amalga oshiriladigan harakatlar majmuasidir. Sifatning zarur darajasini joriy etish tadqiqot qilish va loyihalash bosqichida mamlakat hamda xorijdagi eng ilg'or ilmiy-texnikaviy yutuqlar tahlili orqali amalga oshiriladi.

Korxonalarda mahsulotni nazorat qilish ikki bosqichda amalga oshiriladi: haqiqatda mahsulotning holati to'g'risida ma'lumotlar olish (uning miqdoriy va sifat belgilari to'g'risida), olingan ma'lumotlarni oldindan belgilangan texnik shartlar bilan taqqoslash, ya'ni ikkilamchi ma'lumotlarni olish haqiqatdagi ko'rsatkich, normativ shartlarga mos kelmagan hollarda nazorat obyektiga normativ shartlardan foydalanish orqali boshqaruv ta'siri amalga oshiriladi.

Bugungi kunda to'qimachilik korxonalarida sifatni boshqarishda mahsulot sifati yuqori barqarorligi va turg'unligi kafolati bo'lgan sifat menejmentining sertifikatlashtirilgan tizimi muhim ahamiyatga ega. Sifat tizimining sertifikati korxonaga bozorda raqobat ustunligini saqlab qolish imkonini beradi. Sifatni tahlil qilishning statistik usullari mamlakatimizda hamda chet ellarda sifatni boshqarish tizimlarida keng qo'llaniladi.

1-jadval

Rejalashtirish va boshqarish jarayonining kirish parametrlari

Qaysi jarayonga, bo'linmaga, tashkilotga	Kirish ma'lumotlari parametrlari	Kirish ma'lumotlarini taqdim qilish uchun mas'ul shaxs	Kirish ma'lumotlarini taqdim qilish shartlari	Kirish ma'lumotlarini taqdim qilish davriyligi
Barcha jarayonlar va bo'linmalarga	Sifat sohasidagi siyosat va maqsadlarning bajarilishini tahlil qilish	Bosh direktor	Hisobot	Reja bo'yicha (kamida yilda 1 marta)
Barcha jarayonlar va bo'linmalarga	Audit tekshiruv natijalari	Bosh direktor	Hisobot (audit natijalari bo'yicha)	Reja bo'yicha (kamida yilda 1 marta)
Barcha jarayonlar va bo'linmalarga	Iste'molchilar va aks aloqa	Bosh direktor	Hisobot (anketa tarqatish natijalari bo'yicha)	Har chorakda
Barcha jarayonlar va bo'linmalarga	Yengil sanoat qilinayotgan mahsulotning va mahsulot standart talablariga muvofiqligi	Bosh direktor	Hisobot (chorak natijalari bo'yicha)	Har chorakda
Barcha jarayonlar va bo'linmalarga	SMTga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan o'zgartirishlar (takliflar va tavsiyalar)	Barcha jarayonlar va bo'limlar rahbarlari	Ixtiyoriy shaklda	Zarurat tug'ilganda

Statistik tahlil mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi omillar va shartlarni tahlil qilishdir.

Sifatni nazorat qilish va tahlil qilishning ma'lumotlar manbalari quyidagilar hisoblanadi:

1. Inspeksion nazorat: berilgan xomashyo, materiallarning kirish nazorati ma'lumotlarini belgilash; tayyor mahsulotlarni belgilab qo'yish, oraliq mahsulotlarni belgilab qo'yish, oraliq nazorat ma'lumotlarini belgilash va shu kabilar.

2. Ishlab chiqarish va texnologiya, jarayonni tahlil qilish ma'lumotlarini belgilab qo'yish, qo'llanilayotgan operatsiyalar tog'risida ma'lumotlarni (to'g'rilash, ta'minlash, texnikaviy xizmat ko'rsatish) belgilab qo'yish va shu kabilar.

3. Xomashyo va materiallarni keltirish va mahsulotni sotish, harakatni omborxonalar orqali ro'yxatga olish va shu kabilar.

4. Boshqarish va ish yuritish, foydani hisobga olish, qaytgan mahsulotni hisobga olish, doimiy mijozlarga xizmat ko'rsatishni hisobga olish, sotishni hisobga olish jurnali, bozorni tahlil qilish ma'lumotlari va h.k.

5. Moliyaviy operatsiyalar, debet va kreditni taqqoslash jadvali, zararlarni hisobga olish, iqtisodiy hisoblar va shu kabilar.

Odatda, Yaponiya korxonalarida ish o'rinlarida ma'lumotlarni tahlil qilish uchun maxsus, tushunish unchalik qiyin bo'lmagan "sifatni nazorat qilishning yetti instrumenti" deb nomlangan statistik usullardan foydalaniladi.

Ushbu yetti instrument o'z ichiga quyidagi usullarni oladi:

1. Qatlamlashtirish.
2. Grafiklar.
3. Diagramma Pareto.
4. Sabab-oqibat diagrammasi.
5. Gistogramma.
6. Sochilish diagrammasi.
7. Nazorat kartalari.

Yuqorida sanab o'tilgan "Sifatni nazorat qilishning yetti instrumenti" turli muammolarni hal etishda alohida yoki turli kombinatsiyalarda qo'llanilishi mumkin.

Tahlil natijalari quyidagilarga qaratilgan barcha qaror va amallarni o'z ichiga olishi lozim:

- SMT va uning jarayonlari samaradorligini yaxshilash;
- iste'molchilar talablari asosida mahsulotni yaxshilash;
- resurslarga bo'lgan ehtiyoj.

Tahlil natijalari yuqori rahbariyat tomonidan SMTning faoliyati va uning samaradorligini tahlil qilishi uchun korxonalar rahbarining sifat bo'yicha vakili hisobotiga qo'shilishi kerak. Belgilangan tavsiflar bajarilmagan taqdirda jarayon rahbari uni yaxshilash bo'yicha o'z tavsiyalarini

yo'zma ravishda bildirishi lozim. Natijalilik tavsifi-ning bajarilmasligiga asosiy sabablar quyidagicha bo'lishi mumkin.

1. Jarayondagi asosiy funksiyalar yoki mezonlarning yetarli aniqlanmaganligi.
2. Mezonlarni bajarish yoki ularni nazorat qilishda noto'g'ri usullarning qo'llanilishi.
3. Jarayonlarning kirish ko'rsatkichlari belgilangan tartiblarga javob bermasligi.

Respublikamiz to'qimachilik tarmog'ida 2020-2024-yillarda rejalashtirilgan modernizatsion ssenariy asosida rivojlanish belgilangan.

2-jadval

To'qimachilik korxonalari ishlab chiqarish quvvatlaridan 2020-2024-yillarda foydalanishning prognoz ko'rsatkichlari

Yillar	Inersion ssenariy	Innovatsion ssenariy
2020	30654,7	33720,1
2021	31651,5	34816,6
2022	32613,9	35875,2
2023	34579,8	38037,7
2024	35874,1	39975,6

Inversion ssenariy mamlakatning to'qimachilik kompleksi rivojlanishidagi mavjud tendensiyalarni hech qanday katta o'zgarishsiz mavjud rivojlanish dinamikasini saqlashni ta'minlaydi. Bu ichki bozorda import ulushining yanada oshishiga va keyinchalik ushbu tarmoq eksportining qisqarishiga olib keladi.

Innovatsion ssenariy mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ilmiy-tadqiqot sohasida, korxonalarining moddiy texnik bazasini modernizatsiyalashda olib boriladi, resurs tejamkor ishlab chiqarish liniyalari jalb etiladi, mehnatni "Lean production" konsepsiyasi asosida tashkil etishni ko'zda tutadi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, yalpi ichki mahsulot hajmi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil yanvar-dekabr oylari uchun mahsuloti (YaIM) joriy narxlarda 1 066 569,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 6,0 foizga o'sdi. 2022-yilning mos davriga nisbatan sanoat sektorining o'sishi 6,0 %ni tashkil etdi. To'qimachilik mahsulotlari 106,4 %ni tashkil etdi [8]. O'zbekistondagi to'qimachilik

sanoat tarmog'i faoliyatining SWOT tahlilini o'tkazish natijasida hozirgi kunda tarmoq korxonalarining yangi ichki imkoniyatlari paydo bo'layotgani va tarmoqni rivojlantirish uchun qulayliklar yaratilayotgani ma'lum bo'ldi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, to'qimachilik mahsulotlari sinovlarini amalga oshirishda laboratoriyalardagi moddiy-texnik bazaning dunyo standartlari darajasida emasligi, shuningdek, sifat menejmentining zamonaviy tizimlarini joriy etishning darajasi yuqori emasligi mahsulotlarning jahon bozoriga kirishdagi muammolarga sabab bo'lmoqda.

To'qimachilik sanoatidagi korxonalarda iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha ijobiy o'zgarishlar ro'y berayotgan bo'lsa-da, tahlillar shuni ko'rsatadiki, sifat menejmentini joriy etishda muammolar aniqlandi. Bu esa o'z navbatida, sifat menejmentini joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishning zarurligini ko'rsatadi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldoshev N.Q., Yusupova D.T. Sifat menejmenti. O'quv qo'llanma. 113-114-b
2. Эдвардо Деминг и философия управления качеством. <http://quality.eur.ru/MATERIALY/guru.htm>
3. Государственный стандарт РФ ГОСТ ИСО 9000-2001 "системы менеджмента качества. Основные положения и словарь".
4. Yo'ldoshev N.Q., Yusupova D.T. Sifat menejmenti. O'quv qo'llanma. 114-b.
5. Залотогоров В.Г. Экономический словарь. В.Г.Залотогоров, Г.Ф.Кузнецова, Науч. ред. А.И.Горина. - Минск: Наука и техника, 1983. - 316 с.
6. Пикулькин А.В. Система государственного управления. Учебник. / А.В.Пикулькин; под ред. Т.Г.Морозовой. - М.: ЮНИТИ, 1997. - 325 с.
7. Корная Я. Честность и доверие в переходной экономике. // Вопросы экономики. 2003. № 9. С. 25-30.
8. <https://stat.uz/img/talil-2023-jil-yanvar-dekabr-ruscha-.pdf>